

QIZIL VA OQ GULLAR URUSHI

Lapasov Xusan

TDPU.Tarix fakulteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Angliyaning XV asrdagi ijtimoiy -siyosiy hayoti, Qizil va oq gullar urushi, Lankasterlar va Yorklar o`rtasida taxt uchun kurash, hal qiluvchi janglar va urushlarning natijalari tahlil qilinib, ochib berishga harakat qilingan.*

Kalit so`zlar: *Qizil va oq gullar, Lankaster, York, Bosvort, Tyudor.*

Bilamizki, yer yuzida 10 mingdan ortiq katta-kichik urushlar bo`lib o`tgan. Urushlar insoniyat tarixining bir qismi bo`lib, turli davrlarda yuz bergan. Urushlar o`zi ikki davlatlar, sulolalar, etnik va diniy guruhlar o`rtasida yoki jamiyat ichidagi kuchlar o`rtasida bo`lib o`tadi. Angliya XV asrda ikkita yirik urushlar girdobiga tushib qoldi. Angliya va Fransiya o`rtasida (1337-1453) yillarda “Yuz yillik urush” bo`lib o`tadi. Angliya qiroli Edvard III ning Fransiya taxtiga bo`lgan da`vosi Yuz yillik urushni keltirib chiqardi. Urush Fransiyaning g`alabasi bilan yakunlandi va inglizlar Fransiyadagi barcha hududlarini yo`qotdi. Angliya esa o`z ichki nizolariga – ayniqsa “Qizil va Oq gullar urushi”ga sho`ng`idi. Endi Fransiya taxtiga emas, balki, Angliya taxtiga kimni o`tqazish masalasi sulolar o`rtasida urushga aylanib ketdi. Qizil va oq gullar urushi (1455-1485) yillar davomida bo`lib o`tgan. “Qizil va oq gullar urushi” deya nomlanishiga asosiy sabablardan biri, ya`ni Lankasterlarning ramzi qizil, Yorklarniki esa oq rangda bo`lganligidir. Bu ikki sulolani ma`lum toifalar qo`llab-qo`vvatlashgan. Masalan: Lankasterlarni iqtisodiy qoloq Shimoliy va Uels baronlari, Yorklarni esa iqtisodiy taraqqiy qilgan Janubiy Sharqning yirik zodagonlari, dvoryanlar hamda shaharlik boylar qo`llab-qo`vvatlashgan. Urushda York va Lankaster sulolalari butunlay tugatildi. Taxt esa Tyudorlar qo`liga o`tdi. Yuz yillik urushdagi mag`lubiyat Angliyani tushunib bo`lmaydigan iqtisodiy betartiblik holatiga olib keldi. Ingliz feodallari ishlashni bilmas edilar, ular keyin Fransiyaning talon-taroj qilishdi. Taxtda esa yarim aqldan ozgan qiroli Genrix VI Lankaster edi. Darhaqiqat, mamlakatni bir guruh boy inglizlarga tayangan Anju malikasi Margaret boshqargan. Bu esa ingliz jamiyatining ilg`or qatlamlarini g`azablantirdi. Ular Angliyaga erkin savdo va hunarmandchilikni rivojlantirish kerakligini bilishardi. Bundan boy fuqarolar va o`rta sinf norozi bo`lishdi. Jamiyat hafsalasi pir bo`ldi, fuqarolar nizosining boshlanishi uchun zamin tayyor, fuqarolar urushi mexanizmi ishga tushirildi.

Angliya davlat sifatida hech kimni qiziqitirmay qo'ydi. Taxt uchun faqat Lankaster va Yorklar kurashga chiqdi.

Birinchi jang 1455-yil 22-mayda kichik Sent-Albans shahri yaqinida bo'lib o'tdi. 3000 ga yaqin lankastriyalik sodiqlar shahardagi barrikadalar ortiga yashirinib olishdi va Yorkistlar sonidan ikki baravar ko'p bo'lgan birinchi hujumni qaytarishga muvaffaq bo'lishdi. York gersogi Richard 1455-yil Lankasterlar armiyasini mag'lub etdi. Ammo armiyasidagi kurash natijasida, u hokimiyatdan chetlashtirildi. Jangda Anju malikasi Margaret jasorat va harbiy mahoratda erkaklardan kam emas edi. Jangda Lankaster ritsarlari g'alaba qozonadi. 1461-yilda qonli jang bo'lib o'tadi va unda Yorkchilar qo'shinlari Lankasterlarni tor-mor qilgan va Eduard IV Yorkchilar tomonidan Angliya taxtiga chiqadi. Tovton jangi urushda eng katta burilish nuqtasi hisoblanadi. 1464-yili Eduard IV mutlaq bo'ysinishga harakat qilib, Shimoliy viloyatlarda Lankasterlarga qarshi chiqdi. 1470- yilda qirol taxtdan haydalib, Genrix VI va Margareta yana hokimiyat tepasiga keladi.¹² Keyinchalik, Genrix VI Tauer zindoniga qamaladi va o'ldiriladi. Eduard IV (1461-1483) hokimiyatga kelgach, Lankaster zodagonlariga qarashli barcha yerlarni musodara etadi. Tez orada u yangi zodagonlar toifasini vujudga keltiradi. Eduard IV ingliz savdosining rivojlantirishni rag'batlantirib, burjuaziyadan katta pullar olgan. Eduard IV vafot etgandan keyin ukasi Richard III hokimiyatni egallab oladi.

Richard III ning hokimiyatga kelishi ko'plab zodagonlarga yoqmaydi. 1483-yilning oktabr oyida Buringemiyaliklar gubernatori Lankasterlar merosxo'ri Genrix Tyudorni Richmondning Earl taxtiga joylashtirish uchun qo'zg'alon boshlaydi. Fransiyada Richard III tomonidan Dyuk Frensis II tomonidan olib borilgan bosim tufayli tobora xavfli bo'lmagan Gvenri tez orada Fransiyaga qochib u yerda yordam ko'rsatdi. Tez orada hal qiluvchi jang boshlanadi. 1485-yil 22-avgust kuni Genrix VII Tyudor va Richard III o'rtasida Bosvort jangi bo'lib o'tadi. Jangdan oldin Angliya qizil va oq gullar urushi davrida bo'linib, kuchli fuqarolar urushiga duch keldi. Richard III taxtda kuchli hukmronlikni o'rnatgan bo'lsada, u ko'plab raqobatchilardan va ularning tarafdorlaridan xavf ostida edi. Genrix VII Tyudor o'zining Lankasterlar sulolasiga bo'lgan haqqini davo qilib, Richard III ga qarshi jangga kirdi. Richard jangda mag'lubiyatga uchraydi va Angliya taxtiga Tyudorlar sulolasi keladi.

Genrix VII davrida chaqirilgan birinchi parlamentda lordlar palatasiga 20 ga yaqin kishi kelgandi. Vaqt o'tishi bilan halok bo'lgan baronlar o'rniga burjuaziya bilan aloqador o'rta dvoryanlardan chiqqan va o'z xo'jaligini yangicha, chinakamiga bozor usullari bilan yurgizuvchi yangi dvoryanlar

¹² <https://www.worldhistory.org/>

keladilar. Bu urush Angliya tarixida muhim burilish bo'lgan, chunki u kelajakdagi siyosiy tizim va qirollikning kuchayishi uchun asos yaratgan. Tyudorlar sulolasi bu urushning yakuni sifatida taxtga chiqadi va Angliya uchun yangi davrni boshlab beradi. Bu urushning yana bir o'ziga xos jihati, unda ko'plab baronlar va yuqori martabali zodagonlar qirilib ketadi.¹³ Angliyada aynan XV asrgacha yirik zodagonlar va baronlar qirol hokimiyatidan ancha kuchli edi. Qizil va oq gullar urushining ahamiyatli tomoni shundaki, urush natijasida Tyudorlar sulolasi hokimiyatga kelgach, Angliyada qirol hokimiyati markazlasha boshlaydi. Tez orada Genrix VII York sulolasidan Yelizaveta bilan turmush qurib ikki sulolani birlashtiradi. Garchi bu urushda atirgullar haqiqatan ham ramz sifatida ishlatilgan bo'lsada, ishtirokchilarning asosiy qismi tabiiy ravishda o'zlarining gerblari yoki hukmdorlarning ramzlaridan foydalanganlar. Misol uchun: Genrixning Bosvortdagi qo'shinlari qizil ajdaho tasvirlangan bayroq ostida jang qilishdi va Yorkliklar Richard III ning shaxsiy ramzi – oq cho'chqa tasviridan foydalanganlar.

“Qizil va oq gullar urushi” davrida Angliya ichki siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan katta o'zgarishlarga duch keldi. Beqarorliklar va zo'ravonliklar, zodagonlarning taxt uchun kurashlari xalqning hayotiga ham ta'sir ko'rsatgan. Urush davomida xalqning hayoti ham beqaror bo'lib, iqtisodiy ahvol yomonlashadi. Savdoga ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Angliyada cherkov kuchli ta'sirga ega bo'lgan bo'lsada, urush davrida diniy beqarorlik ham kuchaygan. Shunga qaramay, Angliya Uyg'onish davriga asta-sekin qadam qo'yayotgan edi. Urushdan keyin Tyudorlar hokimiyatga kelgach, madaniyat va ilm-fanga e'tibor kuchayadi. Ilm-fanning taraqqiyoti mamlakatda urushning yakunlanishiga ma'lum darajada ta'sir o'tkazdi. Mamlakatda asta-sekin markaziy hokimiyat qaror topa boshladi.

XULOSA: Angliyada “Qizil va oq gullar urushi” 30yildan oshiqroq vaqt davom etdi. Bu urushda ko'plab zodagonlar qirilib ketadi, natijada, qirollik hokimiyati kuchayadi va davlat boshqaruvi markazlashadi. Qirol hokimiyatining kuchayishi esa iqtisodiy barqarorlikni ta'minlab, savdo va sanoatni rivojlanishiga yo'l ochdi. Buning natijasida Angliya sanoati shiddat bilan rivojlana boshlaydi. Keyinchalik bu Britaniya imperiyasiga poydevor bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://www.worldhistory.org/>
2. Салимов Т.У Жахон тарихи 190-бет, Тошкент „Университет“ 2014

¹³ Салимов Т.У Жахон тарихи 190-бет, „Тошкент Университет“ 2014